O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOG‘-KON SANOATI
VA GEOLOGIYA VAZIRLIGI

GEOLOGIYA FANLARI UNIVERSITETI

“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DAVLAT MUASSASASI

REPUBLIK OF UZBEKISTAN
MINISTRY OF MINING AND GEOLOGY

UNIVERSITY OF GEOLOGICAL SCIENCES

INSTITUTE OF MINERAL RESOURCES STATE ESTABLISHMENT

BUYRUG`I

2026y. «30» 10 172-n **son** Toshkent shahri

“Mineral resurslar instituti” DM da 2027-yil tayanch doktorant (PhD) va stajyor tadqiqotchilikga talabgorlarni qabul qilish maqsadida qabul imtixonlarini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limdan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mineral resurslar instituti” DM tasarrufidagi Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga tayanch doktorantura (PhD) va stajyor-tadqiqotchilikka talabgorlarni ochiqlik asosida imtixondan o‘tkazish maqsadida,

B U Y U R A M A N :

1. “Mineral resurslar instituti” DM direktorining 2026-yil 14-oktyabrdagi 162-P-sonli buyrug‘ida belgilangan 2027-yil uchun tayanch doktoranturaga (PhD) talabgorlarni saralab oluvchi Komisiya tomonidan talabgorlardan ochiqlik va shaffolik asosida kirish imtihonlari o‘tkazilsin.
2. “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim instituti” mudiri (Asabayev) kelib tushgan xujjatlarni yuqori sifatda tayyorlab qabul komissiyasiga taqdim etish ta’minlansin.
3. “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim instituti” mudiri (Asabayev) komissiya a’zolari bilan birgalikda:

- 04.00.02 – “Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga (PhD) o‘qishga qabul qilish imtihoni 2026-yil 17-noyabr kuni soat 10:00 da o‘tkazilishi ta’minlansin;
- imtihon o‘tkazish joyi: Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek tumani, Olimlar ko‘chasi, 64-uy, Mineral resurslar instituti 308-xona etib belgilansin;
- “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim instituti”ga tayanch doktoranturaga (PhD) qabul qilish natijalari bo‘yicha ma’lumotlar joriy yilning 23- noyabr sanasiga qadar tegishli tartibda tasdiqlash uchun kiritilsin.

4. Inson resurslarini boshqarish bo‘limi (Xalilova) imtixon natijalariga ko‘ra tayanch doktoranturaga (PhD) qabul qilinganlik to‘g‘risida buyruqlar tayyorlansin.
5. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor, g.-m.f.f.d. **R.X. Ibragimov**